

**BOSHLANG‘ICH SINIF GRAMMATIKA VA IMLO DARSLARIDA
QIZIQARLI O‘YINLARDAN FOYDALANISH**

**Shomurotova Sevinchoy San‘at qizi,
Urganch davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
E-mail: sevinchoyshomurotova93@gmail.com**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili grammatikasi va imlo darslarida qiziqarli o‘yinlaridan foydalangan holda dars o‘tish usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, ona tili, o‘quvchi, nutq, yozuv, grammatika, metod, uslub.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРЕСНЫХ ИГР НА УРОКАХ ГРАММАТИКИ
И ПРАВОПИСАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

**Шомуротова Севинчой Санъат кизи,
Урганчский государственный педагогический
институт, направление начального
образования, студентка 3-го курса.**

E-mail: sevinchoyshomurotova93@gmail.com

Аннотация: В данной статье рекомендуется использовать веселые игры на уроках грамматики и орфографии младших школьников на родном языке.

Ключевые слова: начальный класс, класс, родной язык, ученик, речь, письмо, грамматика.

**USING ENGAGING GAMES IN GRAMMAR AND SPELLING LESSONS IN
PRIMARY SCHOOL**

**Shomurotova Sevinchoy San‘at qizi,
Urgench State Pedagogical Institute,
Department of Primary Education,
3rd-year student.**

E-mail: sevinchoyshomurotova93@gmail.com

Abstract: This article discusses the use of interesting games in teaching grammar and spelling in the native language to primary school students.

Keywords: primary, class, native language, student, speech, writing, grammar.

Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiyaning zamon talablari darajasida takomillashtirilishi, yoshlarning ma‘naviy barkamol shaxslar bo‘lib yetishida asosiy omillardan hisoblanadi. Buning uchun o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik va metodik tayyorgarligini oshirish, darslarni ilmiy jihatdan takomillashtirish, ilg‘or va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga to‘liq joriy qilish to‘g‘risida ko‘plab fikrlar bayon etilmoqda.

Bugungi kunda xalq ta‘limi xodimi oldida turgan eng muhim masala bu– yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Buning uchun salohiyatli, zamonaviy ilm-fan sirlarini puxta o‘zlashtirgan kadrlarga ehtiyoj sezilmoqda.

Yurtboshimiz alohida ta‘kidlaganidek: “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz bu borada ma‘naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi” [1].

Zero, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ham ta‘limiy ham tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi dars maqsadiga erishishda o‘quvchilarning imloviy savodxonligi, uni yanada takomillashtirish usullaridan foydalanish va darslarni tashkil qilish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar nutqiy va imloviy savodxonlikka ega bo‘ladigan ona tili ta‘limida o‘quvchi o‘z fikrlarini ravon bayon qila oladigan bo‘lishi va to‘g‘ri savodli yoza oladigan bo‘lishi kerak. Shu jihatdan, boshlang‘ich sinflarning ona tili darslarida o‘quvchilarning imloviy bilimlarini bosqichma-bosqich, tadrijiy ravishda takomillashtirib borish lozim. Shunga ko‘ra, ona tili darslarida o‘quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirishning eng samarali usul va metodlarini qo‘llash bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Ta‘limning takomillashgan turlaridan foydalanish har jihatdan xususan, ona tili darslarida ham o‘ta dolzarbdir. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida keng qo‘llanilayotgan eng samarali metodlar asosida darslarni tashkil qilish, noan‘anaviy usullardan o‘rinli foydalanish metodlarini ishlab chiqish va uni hayotda tatbiq etishdir. Vaholanki, boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirish va mustahkamlashda turli-tuman qiziqarli texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilar faolligini ta‘minlaydi [7]. Shunday ekan bu kabi texnologiyalarni qo‘llash ijobiy samara beradi.



Ta'lim maktabi «Ona tili o'qish va nutq o'stirish» dasturining muhim ko'rsatmalaridan biri – nutq va tafakkurni o'stirishdir. Buning uchun o'quvchilarni faol mustaqil ishlash, nutqi va tafakkurini o'stirish, faol o'ylash, fikr yuritish, tushuntira bilishga o'rgatish, muhokama-mulohaza yuritishga, xulosa chiqarish va umumlashtirish usullaridan foydalana olishga o'rgatish talab etiladi.

Ta'lim maktabida bolalarni tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga, yangi o'rgangan tovush, so'z va gaplarni o'z nutqida to'g'ri ishlata olishga, gap va matn tuzishga o'rgatiladi. Og'zaki va yozma nutqni o'stirish maqsadida o'quvchilar ongiga ayrim grammatik ma'lumotlar singdirib boriladi.

Ta'lim maktabida ona tili darslari amaliy xarakterga ega bo'lib, nutqiy ko'nikma va orfografik malakani hosil qilishga qaratiladi. Ta'limiy vazifalardan tashqari ona tili darslarida korreksion vazifalar ham amalga oshiriladi. Og'zaki va yozma nutq taraqqiy etilishi bilan bir qatorda o'quvchilarning bilish faoliyati, mantiqiy tafakkuri kengayib boradi. Bolalar til materiallarini tahlil qilishga, farqlash, taqqoslash, umumlashtirish, asosiylarini ajratishga o'rganadilar. Materialni analiz va sintez qilish, guruhlash va umumlashtirish, o'xshash va farqli tomonlarini topish, grammatik va orfografik bilimlarni amalda tatbiq etish kabi ongli aqliy jarayonlar bolaning umumiy rivojlanishini ta'minlaydi, nutqiy va aqliy nuqsonlarini bartaraf etishga yordam beradi.

Ona tili va yozuv darslarida o'qituvchi bolalarni til hodisalarini kuzatish va tushunib yozish, ongli o'qish, kitob yoki doskadan, kartochkalardan ko'chirib yozish, nutqni diqqat bilan tinglash, eshitib turib diktovka ostida yozish, o'rgangan qoidaga amalda rioya qilish, aytilgan va yozganlarini tekshirish, ko'rgan-kechirganlarini, o'z taassurotlarini og'zaki va yozma shaklda bayon etishga o'rgatadi.

Ta'lim maktabida ona tili dasturida «Grammatika, imlo va nutq o'stirish» bo'limi o'z ichiga to'rtta katta mavzularni qamrab olgan: «Tovush va harflar», «So'z», «Gap», «Bog'lanishli nutq». Shu qismlarda o'rganiladigan mavzular bilan bog'langan xolda husnixatga doir ayrim ma'lumotlar va imlosi qiyin so'zlar ro'yxati beriladi.

Ta'lim maktabining boshlang'ich sinflarida yozuv darslarida amaliy mashqlar asosida ma'lum grammatik bilimlar beriladi va ko'nikma hamda malakalar hosil qilinadi. Shu yo'l bilan yuqori sinfda ona tili darslarida nazariy bilim egallash uchun zamin hozirlanadi. 1-4 sinflarda o'quvchi so'zning fonetik qurilishi, tarkibi, ma'noli qismlari bilan, ayrim so'z turkumlari va ularning asosiy belgilari bilan tanishadilar, gap va gap bo'laklari haqida ma'lumot oladilar, mazkur mavzularga oid imlo va tinish

belgilari qoidalarini o‘rganadilar [3]. Bu kabi bilimlar egallanishida o‘qituvchining alohida pedagogik mahoratga ega bo‘lishi asosiy rol o‘ynaydi.

Dasturda so‘zning leksik ma‘nosi, ko‘p ma‘noli, ma‘no jihatidan bir-biriga yaqin(sinonim), qarama-qarshi ma‘noli(antonim) so‘zlar bilan tanishtirishga alohida e‘tibor beriladi, nutqni tinglash iqtidori o‘stiriladi, adabiy tilda ko‘nikma hosil qilinadi, tilning asosiy qismlari bo‘lgan tovush, so‘z va gapga ongli munosabatda bo‘lish tarbiyalanadi.

Dastur materiallarning sinflar bo‘yicha taqsimlanishi muhim ahamiyatga ega. To‘g‘ri taqsimlangan material bilimlarni izchillik bilan puxta va to‘liq o‘zlashtirishni ta‘minlaydi.

Ta‘lim maktabining «Ona tili, o‘qish va nutq o‘stirish» dasturi konsentrik ravishda, bosqichli izchillik tamoyili asosida tuzilgan. Beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar birinchi sinfdan boshlab to 4-sinfning oxirigacha bosqichli izchillikda murakkablashib, kengayib boradi. Birinchi sinfdan asosan savod o‘rgatish ishlari tovush va harflarni o‘qish va yozishga o‘rgatish, amaliy yo‘l bilan fonetikani o‘rganish: tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish, bir-biridan farqlash, unli va undoshlarni ajratish, jarangli va jarangsiz tovushlar o‘rtasidagi farqni bilib olishga qaratilgan. Xuddi shu ishlar keyingi sinflarda yangi leksik materiallar asosida davom ettiriladi.

“So‘z” bo‘limidagi mavzular ham grammatik, ham leksik tomondan o‘rganilib, 2-sinfda “So‘zning tarkibi” mavzusi ichida o‘zakdosh so‘zlar, o‘zakdosh so‘zlarning umumiy qismi (o‘zak) haqida, so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar haqida umumiy ma‘lumot beriladi.

3-sinfda “So‘z tarkibi” mavzusi yuzasidan olingan bilimlar kengaytiriladi, murakkablashib boradi. «So‘z turkumlari» mavzusini o‘rganishda 2-sinfda dastlabki tayyorgarlik boshlanadi. O‘quvchilar narsa nomini bildiradigan so‘zlar, Kim? Nima? so‘rog‘iga javob beradigan so‘zlar bilan tanishib, narsa, belgi, harakat kabi tushunchalarni o‘zlashtiradilar. Xuddi shu tushunchalar 3-sinfda murakkabroq shaklda mustahkamlanadi, 4-sinfda kengroq tushunchalar mustahkamlanadi, yuqori sinflarda esa birinchi bor «Ot», «Fe‘l», «Sifat», «Son» so‘z turkumlari haqida nazariy bilimlar beriladi, ushbu atamalar o‘quvchilarning nutqiga kiritiladi, ularning ma‘nosi va ayrim belgilari, ko‘rsatkichlari o‘rgatiladi. Jumladan, otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi, atoqli va turdosh otlar, ot kelishiklari; bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llar.

Keyingi sinflarda grammatika va orfografiyadan beriladigan nazariy bilimlar murakkablashib boradi. Otlarning kelishik va egalik qo‘shimchalari bilan turlanishi,



fe'ning shaxs va son qo'shimchalari bilan tuslanishi, zamonlari o'rgatiladi; son, olmosh va bog'lovchi haqida ma'lumot beriladi, sonning ma'nosi (narsaning soni va tartibini bildirishi), so'roqlari; kishilik olmoshlari, ularning birlik va ko'plikda qo'llanishi, kelishiklar bilan turlanishi; va, ammo, lekin, biroq, shuning uchun kabi bog'lovchilari bilan amaliy mashqlar asosida tanishadilar. Bu mavzularni o'rganish bilan bog'liq xolda egalik qo'shimchalarining aytilishi va yozilishi, qip-qizil, sapsariq kabi sifatlarning yozilishi, sonlarning yozilishi, kelishik qo'shimchalari bilan turlangan kishilik olmoshlarining yozilishi, o'tgan zamon qo'shimchasi –di ning aytilishi va yozilishi, qo'shma fe'llarning yozilishi kabi va boshqa mavzular o'rgatiladi [3]. Shu kabi bilimlar o'quvchilar yoshiga mos tarzda bosqichma-bosqich o'rgatiladi.

«Gap» mavzusi bo'yicha o'quvchilar nutqdan gaplarni ajrata olishga, o'qish vaqtida tinish belgilariga, ohang va pauzaga rioya qilishga; gapni yozib, oxirida nuqta qo'yishga, gapni bosh harf bilan yozilishiga, so'roq va undov belgilari, gap bo'laklari haqidagi nazariy bilimlariga amal qilishga o'rganadilar. Grammatika va orfografiya darslarida aqlan zaif o'quvchilar mustaqil hayot kechirishi davomida zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar bilan tanishib, gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, uyushiq bo'laklarning bog'lovchilari, gapni uyushiq bo'laklari, soda va qo'shma gaplar kabi va boshqa bilim, ko'nikma va malakalarni egallab oladilar. Shu tariqa har bir sinfda olib borilgan ishlar o'zbek tili grammatikasi va orfografiyasini butun bir xolda o'rganib, takrorlab, mustahkamlab borish imkonini beradi. Har bir sinfda ma'lum bir bo'limga ko'proq e'tibor berilishi ko'zda tutilgan bo'lsada, umumiylik, yaxlitlik ona tili dasturida saqlangan. Dasturning tushuntirish xatida «Grammatika, imlo va nutq o'stirish» bo'limi ustida olib boriladigan ishlarga qo'yilgan talablar va ularni amalga oshirish tamoyillari, shart-sharoitlari, usullari ko'rsatilgan [3]. Ushbu bo'limlarning har birida tushuntirish metodikalari bayon qilingan.

Ta'lim maktabining «Ona tili, o'qish va nutq o'stirish» dasturi tahlili shuni ko'rsatdiki boshlang'ich sinf yozuv darslarida grammatika va orfografiyadan beriladigan bilimlar elementar-amaliy xarakterda bo'lishiga qaramay, ushbu bilimlar yuqori sinfda o'zbek tili grammatikasi va imlodan nazariy bilimlarni o'zlashtirishga puxta zamin hozirlaydi [8]. Nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy bilimlar ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, ta'lim maktabida grammatika va imlo darslari ikki bosqich bo'yicha o'tilishi maqsadga muvofiqdir. Birinchi bosqichda 1-4 sinflarda amaliy

bilimlar deyarli berilmaydi. Amaliy mashqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari keyinchalik yuqori sinflarda grammatika va imlodan nazariy bilim olish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni o'zlashtirib oladilar, ularning nutqi va tafakkuridagi, bilish faoliyatidagi nuqsonlari kamaytiriladi, korreksiyalanadi.

Keyingi bosqichda o'quvchilarga Grammatika va imlodan mustaqil hayot kechirishda zarur bo'lgan hajmdagi nazariy bilim va ular asosida orfografik ko'nikma va malakalar shakllantiriladi, o'quvchilarning og'zaki va yozma bog'langan nutqi rivojlantiriladi [3]. Bog'lanishli nutqni o'quvchilarda rivojlantirish muhim jihatlardan biridir. Chunki o'z fikrlarini nutq yordamida bayon qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf grammatika va imlo darslarida qiziqarli o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning bilim olishida va darsga qiziqishida juda ahamiyatlidir. Har bir yangicha o'yin va didaktik materiallardan foydalanib o'tish o'quvchilarning o'zlashtirishida samarali usul hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Oliy Majlisga murojaatnomasi”. 2020-yil 29-dekabr. Kun.uz
3. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldoshev, Sh.Sariyev “Ona tili o'qitish metodikasi” Toshkent “Nosir” nashriyoti 2009-y
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016.
5. Mirziyoyev. Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. - T.: O'zbekiston, 2017.
6. Rafiyev A., Muxamedjanova G. “O'zbek tili” (9-sinf darslik) T.: –2019,,O'qituvchi“ nashriyot
7. Avliyoqulov N.X. “Zamonaviy o'qitish texnologiyalari” (o'quv qo'llanma).- Buxoro. Matbaa, 2001
8. Azixodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. (O'quv qo'llanma) – T.: Moliya,
9. Beruniy. Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar Tanlangan asarlar. 1- jild. – Toshkent: 1968.
10. G.Boymurodova, X.Sattorova va boshqalar “O'qish” (4-sinf o'qituvchi kitobi) T.: “Sharq” 2017.
11. Muslimov N.A., Usmonboeva H. va boshqalar “Innovatsion ta'lim texnologiyalari” (o'quv qo'llanma) – T.: 2015.
12. <https://www.hikmatlar.uz/quote/2575>
13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 1992-y. 45-bet

